

---

**1) 7 yillik tajribaga ega tarix fani o'qituvchisi o'quvchilarning o'zining faniga nisbatan qiziqishlari kamayib borayotganligini sezib qoldi. bunday vaziyatda o'qituvchi qanday faoliyatni amalga oshirsa samaraliroq bo'ladi**

A) o'quvchilar bilan nega aynan shunday bo'layotganligi haqida suhbat o'tkazish

B) bu haqida maktab ma'muriyati bilan suhbatlashish

**C) O'z faoliyatini qayta ko'rib chiqib o'quvchilarda qiziqishlar uyg'otish uchun izlanish**

D) maktab psixologidan yordam sorash

**Izoh: O'qituvchi eng avvalo o'zidagi kamchiliklarni bartaraf qilib o'z ustida ishlaydi . Shunda ham natija bo'lmasa boshqalarga murojaat qilishi mumkin**

**2) O'qituvchi o'quvchilarga lug'at tanlashda qanday maslahatlar beradi?**

A) Eng katta hajmli lug'atni tanlashni

B) Har doim inglizcha-o'zbekcha lug'atdan foydalanishni

C) Faqat eski lug'atlardan foydalanishni

**D) Yoshi va bilim darajasiga mos lug'at tanlashni**

**3) Ota-ona maktabga kelib, o'qituvchi bilan farzandining darsdagi qiyinchiliklari haqida suhbatlashishni xohlaydi. Ular farzandining darslarni**

---

**tushunmayotganini, uyda ko‘p vaqt o‘qish bilan o‘tkazayotganini, lekin natija sezilmayotganini aytib, xavotir bildiradi.**

Quyidagi javoblardan qaysi biri o‘qituvchining eng to‘g‘ri yondashuvi hisoblanadi?

A) "Bu sizning farzandingizning o‘ziga bog‘liq, biz bir xil dars o‘tamiz, qolganlar tushunmoqda."

B) "Ehtimol, u darsga yaxshi e‘tibor bermayotgandir, siz ko‘proq nazorat qiling."

C) "Keling, birgalikda muammoni aniqlaylik. Men kuzataman, siz uyda yordam berishda davom eting. Keyingi hafta yana suhbatlashamiz."

D) "Agar bu fan qiyin bo‘lsa, boshqa fanlarga urg‘u beraversin, hammaga ham bir xil bo‘lmaydi."

**4) Farzandining o‘qishlari pasayib borayotganligidan xavotirlanib kelgan ota -ona bilan o‘qituvchi qanday faoliyatni amalga oshirishi mumkin?**

A) Ularga farzandining bilimi pasayganidan shikoyat qilishi mumkin

B) Ularni maktab psixologi oldiga maslahat olish uchun yuborishi mumkin

C) Ota-ona bilan suhbatlashib ularga farzandining o‘qishlaridagi pasayishlarining aniq sabablarini ko‘rsatib berish

---

D) Vaqti muammo ekanligini aytib suhbatni keyinga qoldirish

**5) O‘qituvchi o‘quvchilarning bilim saviyasini aniqlash maqsadida quiz testlar oldi. Bu testlarga yozma sharxlar berib o‘quvchilar bilan savol javob o‘tkazdi. Quyida o‘qituvchi qanday faoliyatni amalga oshirdi.**

**A) Ta’lim jarayonida diagnostika**

B) Ta’lim tushuntirish metodi

C) Ta’limda interfaol usul

D) Ta’lim jarayonini muqobillashtirish

**6) Loyiha ishida ikkita shaxsiy adovati bor o‘quvchi bir guruhga tushdi. Shunda o‘qituvchi nima qilishi kerak ?**

A) Alovatli o‘quvchilar yolg‘iz o‘zi loyiha topshirishi kerak

B) E'tibor bermaslik kerak, kelishib olgani yaxshi

C) Ikkalasini ikkita guruhga ajratib qo‘yishi kerak

**D) Ikkalasi bilann suhbatlashishi kerak**

**To‘g‘ri javob: d) Ikkalasi bilan suhbatlashish kerak.**

**Sababi, o‘quvchilarning shaxsiy adovati loyiha ishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. O‘qituvchi vaziyatni tushunishga harakat qilib, muammoni hal qilish uchun**

---

ular bilan alohida yoki birga suhbatlashishi lozim. Bu, ijobiy muhit yaratish va hamkorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Qolgan variantlar:

a) bu o'quvchining yakka ishlashi jamoaviy ish maqsadiga zid bo'ladi.

b) e'tibor bermaslik – muammo chuqurlashishiga olib keladi.

c) har doim ham guruhni ajratish muammoni hal qilmaydi, balki undan qochish bo'ladi.

**7) Rasmiy xat qanday qismlardan iborat bo'ladi?**

A) Kirish, asosiy qism, xulosa

B) Sarlavha, tanishtiruv, natija

**C) Manzil, murojaat, mazmun, ilova, imzo**

D) Mavzu, ruxsat, dalil

To'g'ri javob: C

Izoh: Rasmiy xat quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: manzil (kimga yuborilayotgani), murojaat shakli (hurmatli...), mazmun (asosiy qism), ilova bo'lsa ilova qismini ko'rsatish, va yakunda yozuvchi shaxsning ismi, imzosi, lavozimi.

---

**8) O‘quvchi yangi so‘zni yodlay olmayotgani va mashqlarni bajarishda qiynalayotgan vaziyatda o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi maqsadga muvofiq?\**

A) O‘quvchini mustaqil ishlashga majbur qiladi

B) Uni boshqa darsga qadar kutib turishini aytadi

**C) So‘zni yodlashning oson usullarini tushuntiradi va mashqlarni bosqichma-bosqich bajarishda yordam beradi**

D) O‘quvchiga past baho qo‘yadi

**Izoh:**

Bu kabi vaziyatlarda o‘qituvchi sabr bilan yondashib, o‘quvchiga yangi so‘zni yodlash uchun qulay metodlarni (masalan, rasmi kartochkalar, sinonimlar, qisqa hikoya yoki jumlar ichida ishlatish) taklif etishi kerak. Shuningdek, mashqlarni bosqichma-bosqich bajarishda ko‘maklashib, motivatsiyani oshirishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan ishonchini oshiradi va rivojlanishga yordam beradi.

**9) O‘qituvchi o‘quvchilarga qattiq choralar qo‘llaydi. Doimo o‘z so‘zini o‘tkazishga harakat qiladi. Ba’zan o‘rtacha o‘qiydigan o‘quvchi a’lo baho olsa kimdan ko‘chirding deya ularni izza qiladi.**

Ushbu holatda o‘qituvchida qanday muloqot uslubi ko‘zga tashlanmoqda?

**A) Avtoritar uslub**

---

B) Demokratik uslub

C) Liberal uslub

D) Umumiy uslub

Izoh: Avtoritar uslubda o'qituvchi qat'iy, buyruqboz bo'ladi, o'z fikrini majburan o'tkazishga intiladi, tanqidga toqat qilmaydi, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini cheklaydi. Savolda aynan shunday holatlar tasvirlangan.

**10) O'quvchi guruhli ish vaqtida guruhdagi boshqa a'zolar bilan hamkorlik qila olmayapti. O'qituvchi bu vaziyatda qanday yo'l tutishi maqsadga muvofiq?**

A) O'quvchini mustaqil ishlashga o'tkazadi

B) O'quvchining bahosini pasaytiradi

C) Guruhdagi boshqa o'quvchilarni almashtiradi

**D) O'quvchiga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan individual yordam ko'rsatadi**

Izoh:Guruhli ish — bu nafaqat bilim almashinuvi, balki o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi hamdir. Agar biror o'quvchi guruhda ishlashda qiyinchilikka duch kelsa, o'qituvchining vazifasi uni guruhdan ajratish emas, balki unga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishdir. Bu o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini

---

oshiradi va kelajakda guruh ishlarida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

**11) O‘quvchi: “Bu fan mening tanlagan kasbimga aloqasi yo‘q, men bu fanni o‘qishni xohlamayman”, — deb darsga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotmoqda.**

**O‘qituvchi qanday yo‘l tutishi maqsadga muvofiq?**

A) O‘quvchini o‘sha fan bo‘yicha imtihon topshirishga majbur ekanini eslatadi.

B) O‘quvchining fikrini inkor qilib, faqat topshiriqni bajarishni talab qiladi.

C) O‘quvchining tanlagan kasbi va fanning umumiy hayotiy foydasi o‘rtasida bog‘liqlikni ko‘rsatib beradi.

D) O‘quvchini darsdan chetlatib, boshqalarga xalal bermaslikni buyuradi.

Izoh: O‘qituvchi har bir fanning hayotiy ahamiyatini tushuntirish orqali o‘quvchining motivatsiyasini oshirishi kerak. O‘quvchining tanlagan kasbi bilan o‘qilayotgan fan o‘rtasida bevosita bog‘liqlik bo‘lmasa ham, bu fan orqali rivojlanadigan tafakkur, tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalar kasbiy rivojlanishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining qiziqishini uyg‘otadigan tarzda fan mazmunini hayotiy kontekstda tushuntirishi lozim.

**12) 9-sinf rahbari o‘z sinfi o‘quvchilari bilan juda kam ishlaydi. Hozirgi davrda bu o‘quvchilarda bo‘layotgan**

---

**o'zgarishlarga juda e'tiborsiz. Yaqinda sinf yigitlari guruh bo'lib mahallaning boshqa bolalari bilan qo'pol munosabatda bo'layotganliklari haqida gaplar tarqaldi. Lekin o'qituvchi maktabdan tashqari jarayonda bo'lgan deb o'quvchilar bilan qo'shimcha suhbatlar o'tkazmadi.**

**O'qituvchida muloqot usulining qaysi biri namoyon bo'lmoqda ?**

A) Avtoritar

B) Demokratik

**C) Liberal**

D) A va B javoblar

### **13) Moslashtiring**

#### **1. Avtoritar uslub**

#### **2. Demokratik uslub**

#### **3. Liberal uslub**

a) - tashabbussiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi; -sinf jamoasining tarbiyaviy faoliyatiga aslo aralashmaydi; -ta'lim-tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi.

b) muloqotni tashkil etuvchi o'qituvchi hozirgi zamon talablariga, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan kutilayotgan maqsadlarga javob bera oladi.



---

c) “Mening aytganim aytgan, deganim degan” shaklidagi prinsip asosida pedagogik faoliyat olib boradi.

A) 1-b2-a,3-c

B) 1-a 2-b,3-c

C) 1-c,2-b, 3-a

D)1-c,2-a,3-b

**14) Bir o‘quvchi nazariy mashqlarni ishlashni yoqtiradi, lekin o‘quvchilar bilan muloqot qilishdan qochadi. O‘qituvchi uni muloqotga jalb qilish uchun qanday yo‘l tutishi kerak?**

A) O‘quvchining mustaqil ishlashiga imkon berib, unga qo‘shimcha nazariy topshiriqlar berish

B) O‘quvchini faqatgina baho orqali rag‘batlantirish

C) O‘quvchiga kichik guruhli ishlarda yetakchilik rolini topshirish

D) O‘quvchini muloqotga majburan jalb qilish

**Izoh:**O‘quvchi nazariy bilimlarni yaxshi o‘zlashtiradi, bu esa uni bilimli o‘quvchi sifatida ajratib turadi. O‘qituvchi bu kuchli tomonini hisobga olib, uni kichik guruhli ishlarda yetakchi sifatida jalb qilsa, o‘quvchi o‘zini kerakli his qiladi va muloqotga asta-sekin kirishadi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchining ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanadi va muloqot qilishga nisbatan ishonchi ortadi.

---

**14) O‘qituvchi Pedagogik mahorat doirasida o‘z faoliyati haqidagi ma’lumotlarni, kamchiliklarini qayd qilib bordi. Bu jarayonda o‘qituvchi kasbiy refleksiya o‘z-o‘zini bilishga oid qanday faoliyatni amalga oshirishi bo‘ladi?**

**A) O‘z-o‘zini bilish**

B) O‘z-o‘zini anglash

C) O‘z-o‘zini belgilash

D) O‘z-o‘zini rivojlantirish

**To‘g‘ri javob: A) O‘z-o‘zini bilish**

**Izoh: O‘qituvchi o‘z faoliyati, yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilib, ularni yozib borayotgan bo‘lsa, bu - u o‘zini kuzatmoqda, ya’ni o‘z-o‘zini bilish jarayonini amalga oshirmoqda. Bu kasbiy refleksiyaning birinchi bosqichi hisoblanadi.**

Демак, рефлексия, гарчи онг функцияси саналсада, кишиларнинг ўзаро муносабатлари йиғиндиси таъсирида шаклланади ва инсон психикасига сездирмасдан ўтади, у ўз навбатида, инсон фаолиятини онгли равишда

**Ўқитувчининг касбий рефлексияси асосида педагогик маҳоратининг ривожланиши.**

**ЎЗ-ЎЗИНИ БИЛИШ** жараёни ўқитувчининг педагогик маҳорати доирасида маълумотларни қайд қилиш даражасида кечади, бунда рефлексиянинг пассив шакли устуворлик қилади. Ўқитувчи педагогик фаолиятида юзага келаётган турли қийинчиликлар ва муаммоларнинг сабабларини, эришилаётган ютуқлар ва натижаларни шунчаки қайд қилиб боради.

**ЎЗ – ЎЗИНИ АНГЛАШ** жараёни ўқитувчининг ўз фаолияти ва унда ўзига нисбатан «метапозиция» (ноаниқ позицияда) да туриб, ўзига ташқаридан қараш, ўзини кузатиш малакасини кўзда тутди. Бунда, интериоризация (ташки омилларнинг ички омилларга ўтиши) ҳодисаси амалга ошади, касбий қийинчиликларнинг келиб чиқиш сабаблари расмийлаштирилади; фаолиятдан кўзланадиган асосий мақсад аниқланади, рефлексив – «МЕН» шаклланади. Бу ўқитувчининг долзарб ривожланиш зонаси билан боғлиқ.

**ЎЗ – ЎЗИНИ БЕЛГИЛАШ** жараёнида бошланғич даража касбий эҳтиёжларни ҳисобга олиб белгиланади ва жадал имкониятлар асосида фаолият режалаштирилади. Стратегик, тактик ва тезкор вазифалар шакллантирилади. Ҳақиқий «МЕН» ва идеал «МЕН» нисбатланади<sup>21</sup>. Бу ўқитувчининг энг яқин ривожланиш даражаси<sup>22</sup> билан боғлиқ.

**ЎЗ – ЎЗИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ** жараёнида ўқитувчининг касбий фаолияти давомида такомиллаштирилган педагогик маҳорати, рефлексияланган (яъни аввал фойдаланилган ва уларнинг самарадорлигини баҳолаш натижасида тобора оптимал бўлиб чиққан методлар) ҳаракат усуллари ва методларининг ўсиши содир бўлади.

**ЎЗ – ЎЗИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ** ўқитувчи педагогик фаолияти жараёнида назарий ва амалий тажрибалар асосида, ўз – ўзини касбий жиҳатдан назорат қилиб, педагогик маҳоратини янада такомиллаштириб боришнинг

**15) O‘quvchi grammatikani tushunmayotganini sezsangiz, avvalo nima qilasiz?**

A) Uni tanbeh qilaman

B) Yangi mavzuga o‘tamiz

C) Avvalgi bilimlarini aniqlab, tushunmagan joylarini aniqlayman

---

D) Darsni to‘xtataman

To‘g‘ri javob: C

Izoh: O‘quvchi grammatikani tushunmasa, unga nisbatan tanbeh yoki e‘tiborsizlik emas, balki sabr-toqat va aniqlovchi yondashuv kerak. Avvalgi bilimlarini aniqlab, qaysi bosqichda qiyinchilik borligini aniqlash muhim.

**16) O‘qituvchi ingliz (yoki boshqa til) grammatikasini yaxshi biladi, lekin og‘zaki nutqda qiynaladi. Bu holatda qaysi chora eng samarali bo‘ladi?**

A) Grammatika darslarini yanada chuqurlashtirish

B) Doimiy ravishda yozma tarjimalar qilish

**C) Og‘zaki suhbat mashqlarini ko‘paytirish**

D) Nazariy bilimlarni yana qayta ko‘rib chiqish

Izoh: Og‘zaki nutq ko‘nikmasi grammatikani bilish bilan avtomatik rivojlanmaydi. Suhbatlar, dialoglar, roliklar, rolli o‘yinlar orqali mashq qilish o‘qituvchining nutqiy faoliyatini rivojlantiradi. Shu bois, og‘zaki mashqlar samaraliroq bo‘ladi.

**17) O‘quvchi, o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasidagi ziddiyatli holatlarda ijobiy ijtimoiy-psixologik iqlim yaratish uchun quyidagilardan qaysilarini qilish kerak?**

1) Har bir tomonning fikrini hurmat bilan tinglash

---

2) Ziddiyat sababchisiga bosim o‘tkazish va jazolash, O‘quvchiga qat’iy chora korilishi kerak

3) Ota-onalarni maktab hayotiga faol jalb qilish

4) Muommoni ochiq muloqot orqali hal qilish

A) 1,2,3

B) 2,,3,4

C) 1,3,4

D) 2

Izoh: 1. Bu muhim tamoyildir. Har bir tomon o‘zini eshitilgan va qadrlangan deb his qilsa, ziddiyatni yumshatish osonlashadi.

3. Ota-onalar ta’lim jarayonida faol ishtirok etsa, tushunmovchiliklar kamayadi va hamkorlik mustahkamlanadi.

4. Ochiq va samimiy muloqot — ijobiy muhit yaratishning asosiy vositasi. Bu ishonchni oshiradi.

2. Bu salbiy yondashuvdir. Jazolash ziddiyatni yanada kuchaytiradi, ijobiy iqlimga to‘sqinlik qiladi.

**18) O‘quvchi chet tilidagi so‘zlarni ona tili ta’sirida noto‘g‘ri talaffuz qilmoqda. Bu holatda o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi maqsadga muvofiq?**

A) O‘quvchini qattiq tanbeh qiladi.

---

B) Uning noto‘g‘ri talaffuzini inkor etib, e‘tibor bermaydi.

C) To‘g‘ri talaffuz namunalarini eshittirib, talaffuz ustida mashqlar tashkil etadi.

D) O‘quvchining talaffuzidagi xatoni kulgi ostiga ola

Izoh: O‘quvchilar chet tilini o‘rganayotganda, tabiiy ravishda ona tilining tovush tizimi ta‘sirida bo‘ladi. Bu holatda ularni jazolash yoki masxara qilish emas, balki ularni qo‘llab-quvvatlab, to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish

**19) Sinfingizda bir o‘quvchi bor. U darslarda faol emas, uy vazifalarini ko‘p hollarda bajarmaydi, testlardan past ball oladi. Siz unga yordam bermoqchisiz. Siz qanday choralar ko‘rasiz?**

A. O‘quvchini sinfdoshlari oldida tanqid qilasiz, unga jiddiy ogohlantirish berasiz.

B. O‘quvchini alohida suhbatga chaqirasiz, muammolarini aniqlashga harakat qilasiz va unga yordam berish rejasini tuzasiz.

C. Uni darslarda kamroq chaqirasiz, ko‘proq faol o‘quvchilarga e‘tibor qaratasiz.

D. Ota-onasi bilan bog‘lanib, bolani jazolashni tavsiya qilasiz.

---

**20) Ingliz tili o‘qituvchisi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda asosan qaysi usuldan foydalanadi?**

A) Grammatik qoidalarni yodlash

B) Matn tarjima qilish

**C) Kommunikativ usul**

D) Diktant yozish

**Izoh:** Kommunikativ usul — bu tilni haqiqiy muloqot vositasi sifatida o‘rgatishga qaratilgan metod bo‘lib, o‘quvchilarni faol nutqiy faoliyatga jalb etadi. Ushbu usul orqali o‘quvchilar turli mavzularda suhbatlashish, savol-javob qilish, rolda o‘ynash (role-play), muhokama qilish kabi mashg‘ulotlar orqali tilni tabiiy va samarali o‘rganadi

**21) Dars davomida o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish uchun yangi so‘zlar bilan tanishmoqda. Biroq, bir nechta o‘quvchilar yangi so‘zlarning ma’nosini tushunmayapti.**

**Savol: Siz qanday chorani ko‘rasiz?**

A. So‘zlarni faqat ta’rif bilan tushuntirib, darsni davom ettirasiz.

**B. Har bir yangi so‘zga misollar keltirasiz, rasm va o‘yinlar orqali izohlab berasiz.**

---

C. Soʻzlarni eslab qolish oson boʻlmaydi, shuning uchun bu mavzuni keyinga qoldirasiz.

D. Soʻzlarning tarjimasini aytasiz va oʻquvchilardan yodlab olishni soʻraysiz.

**22) Diktant yozish jarayonida koʻpchilik oʻquvchilar imlo va tinish belgilaridan koʻp xatolarga yoʻl qoʻydi.**

**Savol: Siz qanday yoʻl tutasiz?**

A. Har bir oʻquvchining daftarini tekshirib, ball qoʻyasiz va xatolarni koʻrsatib oʻtasiz.

**B. Umumiy muhokama oʻtkazasiz, keng tarqalgan xatolar ustida ishlaysiz.**

C. Xatolar koʻp boʻlgani uchun sinfni tanqid qilasiz va qayta diktant yozdirasiz..

D. Xatolari koʻp oʻquvchilarga nisbatan jazo choralarini qoʻllasiz.

**23) Oʻqituvchi darsga tayyorlanish jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirsa "Oʻquv jarayonini rejalashtirish" yoʻnalishining qaysi boʻlimiga oid mehnat harakatini amalga oshiradi?**

-oʻquvchilar qiziqishlaridan kelib chiqib tarqatmalar tayyorlash

- taʼlim platformalaridan foydalanish

- oʻquvchilar uchun qoʻshimcha adabiyotlar shakllantirish



---

A) O‘z faoliyatini fanlararo korrektyatsiyalash

B) Darsning aniq maqsad va natijalarini aniqlash

C) O‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv dasturini moslashtirish

## D) Tegishli o'quv ,namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish

### *MEHNAT VAZIFALARI TAVSIFI (Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish yo'nalishida) O'QUV*

#### *JARAYONINI REJALASHTIRISH*

<i>Mehnat harakatlari</i>	<u>Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalarini ishlab chiqish</u>
	<u>O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish (agar kerak bo'lsa)</u>
	<u>O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish.</u>
	<u>O'quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga inobatga olgan holda, darsning aniq va o'lchamli maqsad va natijalarini aniqlab, dars rejasini ishlab chiqish.</u>
	<u>Darsning maqsadlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish.</u>
	<u>Tegishli o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish.</u>
	<u>Dars jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalar integratsiyasini rejalashtirish.</u>
<i>Zarur ko'nikmalar</i>	<u>Ta'limning aniq va o'lchanadigan natijalarini, shuningdek ushbu natijalarga erishishda aniq muddatlar (yil, chorak, dars) uchun vazifalarni aniqlash va ularni rejalarda shakllantirish.</u>
	<u>O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarini muvofiqlashtirish.</u>
	<u>Fanlararo kompetensiyalarni fanga singdirish, o'z fanini boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lash (korrelyatsiya).</u>
	<u>Zamonaviy axborot texnologiyalarini fanga singdirish.</u>
	<u>Dars vaqtini oqilona rejalashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarni aniqlash.</u>
<i>Zarur bilimlar</i>	<u>O'quv reja va davlat ta'lim standartlari, shuningdek maktab ishi bilan bog'liq boshqa hujjatlar (ta'lim tizimining tuzilishi va vazifalari — maqsadlari, huquqiy asoslari, ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va faoliyati).</u>
	<u>O'qitiladigan fan davlat ta'lim standartlari va asosiy umumta'lim dasturi, uning tarixi, shuningdek jahon madaniyati va fanidagi o'rni talablar doirasida</u>
	<u>Fanni o'qitishning turli usullari</u>
	<u>Ta'lim maqsadlariga erishish uchun har xil turdagi rejalarini tayyorlashning tuzilishi va tamoyillari</u>
	<u>Ta'lim jarayonini tashkil etishning didaktik tamoyillari</u>
	<u>Faoliyatni rejalashtirish uchun AKT</u>

---

**24) Dars jarayonida o'quvchilar mavzuni zerikarli ekanligini bildirib, o'qituvchidan boshqa mavzuda dars o'tishni so'radi.**

**O'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?**

A) Zerikarli bo'lsada darslikdan chiqib ketmagan ma'qul

**B) Oldin darslikdagi mavzuni o'tib, mavzuga doir qo'shimcha materialdan foydalanish**

C) Mavzuni o'z holicha qoldirib, qiziqarli o'yin darsiga aylantirish kerak

D) Interfaol metodlardan foydalanib darsni qiziqarli o'tish

**25) Dars jarayonida o'quvchiga quyidagicha imkoniyatlar yaratilganda " Ta'lim samaradorligini ta'minlash " yo'nalishining qaysi mehnat harakati bo'limi aks etadi ?**

**-o'quvchi o'z g'oyalari fikrini tinglashni o'rganadi**

**- o'z fikri va g'oyalarini erkin ayta oladi**

**- insonni hurmat qilish ko'nikmasi shakllanadi**

A) O'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun ularning qiziqishlaridan foydalanish

B) Dars mavzusini amaliyot bilan bog'lash

C) O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish

## D) Dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkonini berish

Ta'lim jarayonini rejalashtirish bilan bog'liq kompetensiyalar o'qituvchilar mas'ul bo'lgan *fan sohasi mazmunini anglash va o'quvchilarning ehtiyojlariga muvofiq* o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq.

*Ta'lim jarayonini rejalashtirishda o'qituvchi zamonaviy o'qitish nazariyalaridan foydalanishi va bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olishi kerak.* O'z ishida o'qituvchi o'zining faoliyati bilan bog'liq barcha standartlar va huquqiy hujjatlarni inobatga olishi kerak.

### TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASH (ta'lim dasturini amalga oshirish)

<b>Mehnat harakatlari</b>	<u>Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilash</u>
	Dars mavzusiga mos keladigan namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish
	Darsda vaqtdan oqilona foydalanish.
	<u>Ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish.</u>
	<u>O'quvchilar bilimni baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qilish</u>
	<u>O'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarini tanlash</u>
	O'qitishning faol usullaridan foydalanish ( <u>frontal ta'lim ustun bo'la olmaydi</u> )
	Umumiy o'rta ta'limning ta'lim standartlarida belgilangan o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish.
	O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish.
	O'quvchilarga metakognitiv strategiyani o'rgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan rejalashtirish, nazorat qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalaridan foydalanish (kognitiv nosozliklarni inobatga olgan holda)
	O'quvchilarga individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z vaqtida differensial yordam berish
	Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bog'lash
	<u>Dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish</u>
	O'quvchilar darsda faol <u>qatnashishini motivatsiyalashda</u> ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanish
	<u>O'quvchilarni darsga qiziqtirishda turli usullardan foydalanish</u>
Sinfda samarali muloqotni ta'minlash	

## 26) O'qituvchi o'qish darsligida berilgan bir matnni

---

**kritik fikrlash qobiliyatini o‘quvchilarda shakllantirishni maqsad qilganda Blum taksonomiyasiga asoslanib qanday yo‘l tutganda samaraliroq bo‘ladi?**

- A) Matnni o‘quvchilarga ko‘chirtirib, ostiga fikrini yozdirsa
- B) Matnni o‘qib tushunganini aytib berishini so‘raganda
- C) Matnni o‘qib bo‘lgach, matnga bo‘lgan tanqidiy fikrini so‘rasa**
- D) Matnni o‘qigach uni qayta - qayta o‘qib yodlatish

**27) O‘qituvchi o‘quvchining tartibi yomon tomonga o‘zgarayotganini ,baholari juda pasayib ketganini ko‘rib u bilan ko‘proq ishlashga harakat qildi . Turli xil usullarni qo‘llab ko‘rdi .Foyda bo‘lmagach hamkasblardan u bola haqida fikrlarini so‘radi . Metod birlashma rahbarlari bilan ham kengashib oldi.**

Quyida o‘qituvchi kasb standartining qaysi bo‘limidagi mehnat harakatlarni amalga oshiryapti ?

- A) O‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish**
- B) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish
- C) Xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish

## D)Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota- onalari bilan hamkorlik

### O'ZLASHTIRISHNI BAHOLASH VA QAYTA ALOQANI TAQDIM ETISH

<b>Mehnat harakatlari</b>	Ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish
	Ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish
	O'quvchilar tomonidan bilimlarni egallash darajasini (hajmini) muntazam / tizimli ravishda kuzatib borish
	O'quvchilar erishgan yutuqlarni natijalarini tahlil qilish
	Dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish
	O'quvchining yutuqlarini baholash, baho asoslab berish
	O'quvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni o'qishni davom ettirishga qiziqtirish
	O'quvchilar ta'lim jarayonida to'qnashgan qiyinchiliklarini kuzatish va qayd etish
	Ushbu sinf(guruh)da dars beradigan hamkasblari bilan muayyan o'quvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida maslahatlashish
Muayyan o'quvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashish	
<b>Zarur ko'nikmalar</b>	O'quvchilarning rivojlanish ishlarini rag'batlantirishdagi baholash va baholash jarayonining turli usullaridan foydalanishni
	Diagnostik va baholash testlarining har xil turlarini ishlab chiqishni.
	O'quvchilarning turli xil ehtiyojlari va qobiliyatlari bilan bog'liq <u>holda baholash usullarini shaxsga yo'naltirish</u>
	O'qitish metodikasi va amaliyotini moslashtirishda o'quvchilarning baholanishiga oid ma'lumotlarini talqin qilish
	O'quvchilarga va ota-onalar(ularning o'rmini bosuvchi shaxslar)ga ta'lim va baholash natijalari to'g'risida qayta aloqani o'rnatish uchun turli xil strategiyalardan foydalanish
<b>Zarur bilimlar</b>	Baholashning zamonaviy nazariyalari, baholash usullari va ularning o'quvchiga ta'sirini
	O'quvchilarning turli xil ta'limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, diagnostika va baholash testlarini tuzish va o'tkazish qoidalarini

O'zlashtirish baholari va qayta aloqani o'quvchining o'quv jarayonini rejalashtirish va o'tkazish samaradorligini oshirish bo'yicha o'quvchilarning **ta'lim natijalarini baholash, tahlil qilish va xulosalar berish bo'yicha kompetensiyasini** o'z ichiga oladi, bu shuningdek o'quvchilarga o'zlarining ta'lim natijalariga erishish darajasi to'g'risida ma'lumot qayta aloqa qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

---

**28) Bir o‘quvchini ota- onasini maktabga chaqirgan o‘qituvchi ularga farzandlarining xulq atvorida bo‘layotgan o‘zgarishlar va o‘qishdagi pasayishlarini qanday tushuntirsa samarali bo‘ladi ?**

A) Ota - ona bilan ziddiyatli holat kelib chiqmasligi uchun ayrim kamchiliklarini berkitsa

B) Biz unga qo‘ldan kelgancha ko‘maklashdik, endi uyda o‘zlaringiz qattiq oling deb uqtiradi

C) O‘quvchining bor yomon xislatlarini ochib berib , uni ota- onasi oldida uyaltirsa

**D) Farzandlarining qilgan xatolarini to‘g‘ri tushuntirib , birga muammoni hal qilish ohangida gapirsa**

**28) O‘qituvchi tayyorlagan ko‘rgzma quroli qachon o‘quvchi uchun qanday bo‘lishi lozim?**

**A) O‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi kerak**

B) O‘quvchi uchun qiziqarli bo‘lishi kerak

C) O‘qituvchi ishtirokini kamaytirishi kerak

D) O‘quvchini o‘ziga jalb qilishi kerak

**29) O‘quvchilarda nutq madaniyati va tinglash qobiliyatini shakllantirish uchun qaysi chora tadbirlar samaraliroq?**

1. Jamoaviy tadbirlar, yig‘inlar o‘tkazish

---

2.O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga qiziqtirish

3.Muloqotda ochiqlik bo‘lishi

4.O‘quvchini erkin so‘zlashiga yo‘l bermaslik

5.Nutqi ravon o‘quvchilarni rag‘batlantish

A) 1 2 3 4

B) 1 3 4 5

**C) 1 2 3 5**

D) 2 3 4 5

**30) O‘qituvchi yozma ishlarni tekshirayotib , o‘quvchilar fe‘l zamonlarini umuman tushunmaganlarini sezib qoldi. Shunda u ta’lim samaradorligini yaxshilash uchun nima qilsa maqsadga muvofiq?**

**A) O‘quvchilarga shu mavzuga doir tushunarli materiallarni izohlab bersa**

B) O‘qituvchi shu mavzuga doir adabiyotlarni ro‘yxatini shakllantirib bersa

C) O‘quvchilarga zamonlardan foydalanib gap tuzib kelishni tushuntirib aytsa

D) Fe‘l zamonlari o‘zi murakkab mavzu ekanligini o‘quvchilarga to‘g‘ri tushuntirsa

**31) O'qituvchi loyiha ishini amalga oshirish jarayonida o'quvchilaridan biri boshqalarga nisbatan ustunlik**



---

**qilayotganini va boshqa o'quvchilarga bajarishga biron bir ish qoldirmayotganligini sezib qoldi . Quyida o'qituvchi qanday yo'l tutadi?**

**A) Loyiha ishidagi rollarni barcha o'quvchilar saviyasiga mos qilib taqsimlash**

B) Loyiha ishidagi rollarni barcha o'quvchilar hohishiga mos qilib taqsimlash

C) Loyiha ishidagi rollarni barcha o'quvchilar nutqiga mos qilib taqsimlash

D) Loyiha ishini barcha o'zi bajarishini tashkillash